O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOYA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. DJabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	



IJTIMOIIY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Berdiyeva Nafisa Qahramonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Raqamli iqtisodiyot kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

berdiyevanafisa354@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-8365-7179>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy xizmatlar tizimida davlat va nodavlat sektorlarining o'zaro aloqasi, ularning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni hamda samarali hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda xorijiy mamlakatlar tajribasi, xususan Skandinaviya davlatlari, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya misolida ijtimoiy xizmatlarni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy modeli o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi ishtirokini kengaytirish zarurati asoslab berilgan. Maqolada ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda davlat tomonidan tartibga solish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va monitoring tizimini takomillashtirish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga sifatli xizmatlarni yetkazib berishda davlat va nodavlat sektorining integratsiyalashgan modeli ishlab chiqish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy xizmatlar tizimi, davlat sektori, nodavlat sektor, davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy himoya, xorij tajribasi, nodavlat notijorat tashkilotlari, samarali boshqaruv, barqaror rivojlanish, ijtimoiy innovatsiyalar.

Abstract. This article analyzes the interaction of the state and non-state sectors in the social services system, their role in ensuring social stability, and effective cooperation mechanisms. The study studies the experience of foreign countries, in particular, the organizational and economic model of organizing social services on the basis of public-private partnership on the example of the Scandinavian countries, Great Britain, and South Korea. It also substantiates the need to expand the participation of non-governmental non-profit organizations in the provision of social services in the conditions of Uzbekistan. The article puts forward practical proposals for improving the system of state regulation, financial support, and monitoring of social services, as well as developing an integrated model of the state and non-governmental sectors in providing quality services to segments of the population in need of social protection.

Key words: social services system, public sector, non-governmental sector, public-private partnership, social protection, foreign experience, non-governmental non-profit organizations, effective governance, sustainable development, social innovations.

Аннотация. В статье анализируется взаимодействие государственного и негосударственного секторов в системе социальных услуг, их роль в обеспечении социальной стабильности и эффективные механизмы сотрудничества. В статье рассматривается опыт зарубежных стран, в частности, организационно-экономическая модель организации социальных услуг на основе государственно-частного партнерства на примере стран Скандинавии, Великобритании и Южной Кореи. Обосновывается необходимость расширения участия негосударственных некоммерческих организаций в предоставлении социальных услуг в условиях Узбекистана. В статье излагаются практические предложения по совершенствованию системы государственного регулирования, финансовой поддержки и мониторинга социальных услуг, а также разработке комплексной модели взаимодействия государственного и негосударственного секторов в предоставлении качественных услуг слоям населения, нуждающимся в социальной защите.

Ключевые слова: система социальных услуг, государственный сектор, негосударственный сектор, государственно-частное партнерство, социальная защита, зарубежный опыт, негосударственные некоммерческие организации, эффективное управление, устойчивое развитие, социальные инновации.



KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining farovonligini ta'minlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy xizmatlar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholining turmush sifatini yaxshilashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlar sohasida davlat va nodavlat sektorlarining o'zaro hamkorligi samaradorlikni oshirish, xizmatlar qamrovini kengaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy siyosatni modernizatsiya qilish, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishning yangi mexanizmlarini joriy etish, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda xususiy sektorni ushbu jarayonga keng jalb etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident farmon va qarorlari orqali ijtimoiy sheriklik, davlat-xususiy hamkorlik, grant va subsidiya asosida ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Biroq, ijtimoiy xizmatlar tizimida davlat va nodavlat sektorlarining o'zaro aloqasi hali to'liq institutsional shaklga ega emas. Ularning hamkorlik mexanizmlarida tashkiliy-huquqiy, moliyaviy va monitoring tizimlari bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud. Shu bois, xorijiy davlatlar – xususan Skandinaviya mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Germaniya tajribalarini o'rganish, ularning samarali boshqaruv modellarini milliy sharoitga moslashtirish zarurati dolzarb masalalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy xizmatlar tizimi, uning tashkil etilishi, boshqaruv mexanizmlari hamda davlat va nodavlat sektor o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy va ijtimoiy fanlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali ijtimoiy xizmatlar tizimini shakllantirishda davlat sektori bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor, jamoatchilik va xalqaro tashkilotlarning faol ishtiroki muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishning nazariy asoslari ilk bor G.Esping-Andersen tomonidan ilgari surilgan "farovonlik davlatlari rejimlari" konsepsiyasida tahlil qilingan. Muallif davlatning ijtimoiy himoya siyosatidagi roli, ijtimoiy xizmatlarning moliyaviy manbalari hamda davlat va bozor o'rtasidagi muvozanat masalalarini asoslab bergan. Shuningdek, J.Midgley o'zining "Social Development" asarida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini, ularning aholi farovonligiga bevosita ta'sirini asoslab bergan.

Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Janubiy Koreya singari mamlakatlar tajribasida ijtimoiy xizmatlar tizimining barqaror ishlashi davlat siyosati bilan nodavlat sektor o'rtasida aniq belgilangan hamkorlik mexanizmlariga asoslanadi. Xususan, Skandinaviya modelida "sherklik asosidagi boshqaruv" tamoyili orqali aholining ehtiyojlariga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlar ishlab chiqiladi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda public-private partnership (PPP) mexanizmlari, grant tizimlari, ijtimoiy buyurtma va subsidiyalar keng qo'llaniladi. R.Titmus va P.Alcock kabi tadqiqotchilar bu modelning ijtimoiy adolat, resurslar taqsimoti va xizmat sifati jihatidan ustunliklarini ta'kidlab o'tganlar.

O'zbekiston olimlari tomonidan so'nggi yillarda ijtimoiy xizmatlar tizimining rivojlanish masalalari ham keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, A.Xo'jayev ijtimoiy xizmatlarning institutsional asoslarini, ularning samaradorligini oshirishda davlat siyosatining o'rnini tahlil qilgan. Shuningdek, M. Nazarov ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari rolini, ularning moliyaviy barqarorlik mexanizmlarini o'rganib chiqqan.

T.Mamadaliyev tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa O'zbekistonda "ijtimoiy sheriklik" mexanizmini takomillashtirish, nodavlat sektorni davlat ijtimoiy buyurtmalari asosida faol jalb etish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (BMT, Jahon banki, UNICEF, UNDP) tomonidan O'zbekistonning ijtimoiy siyosatini modernizatsiya qilish, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini kengaytirish bo'yicha konseptual takliflar ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqotda ijtimoiy xizmatlar tizimining nazariy asoslari hamda davlat va nodavlat sektor o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish uchun tizimli, tahliliy va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Nazariy jihatdan G. Esping-Andersen, J. Midgley, R. Titmus kabi olimlarning ijtimoiy davlat va xizmatlar haqidagi konsepsiyalari o'rganildi hamda O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Empirik bosqichda xorijiy mamlakatlar (Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya) tajribasi tahlil qilinib, milliy amaliyot bilan solishtirildi. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ilib, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarni birlashtirgan holda, ijtimoiy xizmatlar tizimida davlat va nodavlat sektor hamkorligini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish hamda samarador boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash, shuningdek, davlat va nodavlat sektor o'rtasida barqaror hamkorlikni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.


Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga muvofiq bo'lib, aholining ijtimoiy himoya va sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolarning farovonligini oshirishga yo'naltirilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xizmatlar tizimi hajmining o'sish dinamikasi

2018–2024-yillar mobaynida ijtimoiy xizmatlar turlari 42 tadan 63 tagacha ko'paygan, ya'ni 50 foizga o'sish kuzatilgan. Xizmatlardan foydalanuvchilar soni 910 ming kishidan 1,88 million kishigacha ortgan. Bu, o'z navbatida, aholining ijtimoiy yordam infratuzilmasiga bo'lgan ishonchi oshayotganini ko'rsatadi.

Yillik o'sish sur'atining barqaror ortib borishi xizmatlar tizimida modernizatsiya, elektron platformalar, va mahalla darajasidagi xizmatlar integratsiyasi samaradorligini ifodalaydi.



2-rasm. O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimida davlat va nodavlat sektor ulushi



O'zbekiston ijtimoiy xizmatlar tizimida so'nggi yillarda sezilarli strukturaviy transformatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda ijtimoiy xizmatlarning 87,5 foizi davlat sektori tomonidan ko'rsatilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 70,1 foizgacha kamaygan, ya'ni 17,4 foiz punkt pasaygan. Shu bilan birga, nodavlat sektorning ulushi 12,5 foizdan 29,9 foizgacha oshgan.

Bu o'zgarish ijtimoiy sheriklik siyosati natijasidir. Xususan, Prezidentning "Ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari asosida NNTlar, mahalliy jamoat fondlari, xususiy klinikalar va reabilitatsiya markazlari faol ishtiroki kuchaydi.

Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda hamkorlik loyihalari soni 12 tadan 79 tagacha ko'paygan. Bu esa davlatning "barcha xizmatlarni o'zi bajaruvchi" rolikidan "tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi" funksiyasiga o'tganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, band aholining ulushining 1,8 foizdan 3,8 foizgacha oshgani ijtimoiy xizmatlar sektori nafaqat ijtimoiy, balki mehnat bozorida iqtisodiy ahamiyatga ega bo'layotganini bildiradi. Bu yo'nalishda nodavlat sektor yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalla darajasida xizmat turlarini kengaytirish orqali iqtisodiy faollikka hissa qo'shmoqda.

Demak, 2-rasm natijalari asosida aytish mumkinki, ijtimoiy xizmatlar tizimida ko'p sektorli boshqaruv modeli shakllanmoqda, u barqarorlik, raqobat va xizmatlar sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. Ayrim xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy xizmatlar tizimining boshqaruv modeli

Mamlakat	Model turi	Davlat sektori ulushi (%)	Nodavlat sektori ulushi (%)	Asosiy xususiyatlar
Shvetsiya	Aralash (kooperativ) model	60	40	Mahalliy hokimiyat va NNTlar o'rtasida hamkorlik rivojlangan
Buyuk Britaniya	Tarmoq integratsiyasi modeli	55	45	"Community Care Act" asosida mahalliy jamoalar ishtiroki kuchli
Germaniya	Subsidiarlik modeli	65	35	Diniy va xayriya tashkilotlari faol ishtirok etadi
Janubiy Koreya	Innovatsion raqamli model	50	50	Sun'iy intellekt asosida monitoring amalga oshiriladi
Yaponiya	Jamoaviy xizmat modeli	58	42	Qariyalar va nogironlarga mahalla asosida xizmat ko'rsatiladi
O'zbekiston	Modernizatsiya jarayonidagi model	70	30	Davlat asosiy rolni bajaradi, ammo nodavlat sektorga sharoit yaratilmoqda

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishda davlat va nodavlat sektorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli modellari mavjudligini ko'rsatadi.

Masalan, Shvetsiyada amalda bo'lgan "kooperativ model" mahalliy hokimiyatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi mustahkam hamkorlikka asoslanadi. Bu modelda aholining ehtiyojlariga yaqin, shaffof va hisobdor tizim shakllangan. Davlat umumiy siyosatni belgilasa, NNT va kooperativlar xizmatlarni bevosita aholiga yetkazadi.

Buyuk Britaniyada esa "tarmoq integratsiyasi modeli" joriy etilgan bo'lib, u "Community Care Act" asosida mahalliy jamoalar, tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmat markazlarini yagona tarmoq sifatida birlashtiradi. Bu yondashuv ijtimoiy xizmatlarni hududiy asosda boshqarish va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Germaniyada amal qilayotgan subsidiarlik modeli ijtimoiy xizmatlarning katta qismini diniy tashkilotlar, xayriya jamiyatlari va NNTlar zimmasiga yuklaydi. Bu tizimda davlat moliyalashtiradi, biroq bajaruvchilik funksiyasi jamoat sektoriga tegishli. Natijada xizmatlar sifati yuqori va raqobatbardosh muhit vujudga keladi.

Janubiy Koreya tajribasida raqamli innovatsion model asosiy o'rinni egallaydi. Ijtimoiy xizmatlar monitoringi, ma'lumotlar bazasi boshqaruvi va ehtiyojlarni aniqlashda sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari qo'llaniladi. Bu, xizmatlarning aniqligini va tezkorligini oshiradi.

Yaponiyada esa "jamoaviy xizmat modeli" kuchli. U aholining mahalla va jamoa doirasidagi o'zaro yordam tamoyiliga asoslanadi. Yoshi katta, nogiron yoki ehtiyojmand shaxslar uchun "mahalliy yordam markazlari" faoliyat yuritadi.

O'zbekiston holatida esa modernizatsiya bosqichidagi model shakllanmoqda: davlat asosiy xizmatlarni nazorat qiladi, biroq nodavlat sektorga kirish imkoniyatlari kengaymoqda. Hozirda subsidiarlik, sheriklik va raqamli integratsiya yo'nalishlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.



2-jadval. O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar moliyalashtirish manbalari tarkibi (2024-yil holatiga, %)

Moliyalashtirish manbasi	Ulushi (%)	Asosiy yo'nalishlar
Davlat budjeti	61,2	Pensiya, nafaqa, reabilitatsiya markazlari
Mahalliy budjetlar	14,8	Hududiy xizmatlar markazlari
Nodavlat tashkilotlar	11,5	Xususiy klinikalar, nogironlarga xizmat ko'rsatish
Xalqaro grantlar va donorlar	7,3	Innovatsion ijtimoiy loyihalar
Homiylik va xayriya mablag'lari	5,2	Mahalla, yoshlar va ayollar markazlari

Moliyalashtirish tizimi ijtimoiy xizmatlarning barqaror faoliyat yuritishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy xizmatlarning 61,2 foizi davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Bu – davlatning ijtimoiy siyosatda yetakchi rolini saqlab qolayotganidan dalolat beradi.

Mahalliy budjetlar ulushi (14,8%) hududiy xizmat markazlarining o'sib borayotgan ahamiyatini ko'rsatadi. Bu, aholining real ehtiyojlarini hudud miqyosida manzilli aniqlash va joylarda tezkor moliyaviy ta'minot yaratish imkonini beradi.

Shuningdek, nodavlat tashkilotlar ulushi 11,5 foizni tashkil etmoqda. Bu xususiy klinikalar, nogironlar uchun reabilitatsiya markazlari, va yoshlar ijtimoiy xizmatlari kabi sohalarning kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro grantlar va donor tashkilotlari (7,3%) ijtimoiy innovatsiyalar va pilot loyihalar uchun muhim resurs manbai hisoblanadi. Masalan, UNICEF, UNDP, va KOICA kabi tashkilotlar nogiron bolalar, yoshlar bandligi va ayollar ijtimoiy himoyasi yo'nalishlarida faol hamkorlik qilmoqda.

Homiylik va xayriya mablag'lari (5,2%) esa mahalla, diniy va fuqarolik jamiyati tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu ijtimoiy birdamlik va ixtiyoriy yordam madaniyatining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, moliyalashtirish tizimining bunday ko'p manbali (diversifikatsiyalashgan) shakli ijtimoiy xizmatlarning barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat va nodavlat resurslarini birlashtirish orqali innovatsion loyihalar amalga oshirilishiga imkon yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy xizmatlar tizimi mamlakatning ijtimoiy barqarorligi va aholining turmush sifatini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biridir. Mazkur tizimda davlat va nodavlat sektorlarning o'zaro hamkorligi samarali boshqaruv, resurslardan oqilona foydalanish va aholining ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini yaratadi. O'zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish jarayonida davlat muassasalari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, xususiy sektor va mahalla institutlarining faol ishtiroki tizimni yanada moslashuvchan, raqobatbardosh hamda aholiga yaqinroq qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlar ko'لامي kengayib, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va ehtiyojmand oilalarga ko'mak ko'rsatishda sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, xizmatlarning sifati, hududlar bo'yicha teng taqsimlanishi, nodavlat tashkilotlarning faoliyati uchun zarur moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar yetarli darajada emasligi muammosi saqlanib qolmoqda.

Xorijiy tajribalar tahlili (Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Polsha, Turkiya kabi davlatlar misolida) shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar tizimini samarali boshqarish uchun davlat va nodavlat sektor o'rtasida aniq me'yoriy-huquqiy asos, shaffof moliyalashtirish tizimi va sifatni baholash mexanizmlarini shakllantirish muhim omillardir. Mazkur mamlakatlarda davlat organlari ijtimoiy buyurtmalar, grantlar va soliq imtiyozlari orqali nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlab, ularning ijtimoiy xizmatlardagi ulushini oshirishga erishgan.

O'zbekiston uchun ushbu tajribani moslashtirishda mahalliy sharoit, aholining demografik xususiyatlari, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy institutlarning o'ziga xos jihatlari hisobga olish zarur. Shu asosda "Davlat–NNT–Jamiyat" o'zaro aloqasi mexanizmini yanada takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik asosida boshqaruv modelini kuchaytirish, xizmatlar sifatini baholovchi yagona indikator tizimini joriy etish va soha kadrlarining salohiyatini oshirish muhim yo'nalish sifatida belgilandi.

Umuman olganda, ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh qilish jarayonida davlat va nodavlat sektorning o'zaro hamkorligi nafaqat samaradorlikni ta'minlaydi, balki ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qiladi va aholining ishonchini oshiradi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ijtimoiy sheriklik mexanizmini takomillashtirish – davlat va nodavlat sektorlar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shma ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish va ularning natijalarini baholash tizimini joriy etish.



2. Normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash – nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi huquqiy maqomi, moliyaviy imtiyozlari, hisobot berish tartibi va javobgarlik mexanizmlarini belgilovchi maxsus qonun hujjatini ishlab chiqish.

3. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash – davlat budjeti bilan bir qatorda xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar va mahalliy homiylarning resurslarini jalb etish orqali ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish tizimini diversifikatsiya qilish.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish – ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar uchun malaka oshirish, sertifikatlash va xorijiy tajribalarni o'rganish dasturlarini joriy etish.

5. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish – ijtimoiy xizmatlarni boshqarish, monitoring va baholashda elektron platformalar, ma'lumotlar bazalari va mobil ilovalar orqali shaffoflikni ta'minlash.

6. Hududlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish – ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini barcha hududlarda teng darajada ta'minlash, chekka tumanlarda mobil xizmatlar va mahalliy tashabbuslarni rivojlantirish.

7. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, xalqaro grantlar va dasturlar orqali ijtimoiy soha infratuzilmasini modernizatsiya qilish.

8. Monitoring va baholash tizimini joriy etish – ijtimoiy xizmatlarning sifati, qamrovi va aholining qoniqish darajasini muntazam o'rganib boruvchi integratsion tahlil tizimini ishlab chiqish..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–106-son qarori. – Toshkent, 2023-yil 10-fevral.
2. "Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2021-yil 14-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy himoya milliy agentligini tashkil etish to'g'risida"gi PQ–128-son qarori. – Toshkent, 2022-yil 22-iyul.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
5. Karimova, M. (2022). Davlat va nodavlat sektor hamkorligida ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №5, 88–95-betlar.
6. Raximov, A. (2021). Ijtimoiy xizmatlarni boshqarishda davlat ishtirokining samaradorligi. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №3, 72–80-betlar.
7. Jabborova, N. (2020). Mahalla institutining ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi o'rni. Jamiyat va boshqaruv, №4, 64–70-betlar.
8. World Bank. (2023). Social Protection and Jobs Global Practice: Strengthening Social Services Systems in Transition Economies. Washington, D.C.
9. OECD. (2021). Public-Private Partnerships for Social Services: Enhancing Efficiency and Accountability. Paris: OECD Publishing.
10. European Commission. (2022). Social Services in the EU: Towards a Stronger Partnership between Public and Non-Profit Sectors. Brussels.
11. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Social Inclusion and Social Protection Systems in Central Asia. New York.
12. Lee, H., & Kim, S. (2020). The Role of Non-Governmental Organizations in Social Welfare Delivery in South Korea. Asian Social Work and Policy Review, Vol. 14, No. 2, 125–139.
13. Müller, B. (2021). Public–Private Cooperation in Social Welfare Provision: Evidence from Germany. Social Policy Review, Vol. 33, No. 1, 44–62.
14. Polonsky, T. (2019). Community-Based Social Services: Lessons from the UK Experience. London: Routledge.
15. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hisobotlari (2022–2024-yillar). – Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar instituti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
